

**TALABALAR ONGIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV HAMDA
TA'LIM
JARAYONINIG PSIXOLOGIK ASOSLARI HAQIDA**

Ochilov Ulug'bek Musurmon o'g'li

Mirzobod tumani 3-maktab o'qituvchisi

Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li

Guliston davlat pedagogika universiteti, stajyor o'qituvchi

ANNOTATSIYA: *An'anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o'rganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug'ullanadigan kimsalar o'rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo'lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, ta'limning muvaffaqiyatli omillari, kuzatuvchanlik, esda saqlash, diqqat, xotira, iroda, qiziqish.*

**ON THE PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE STUDENTS
CONSCIOUSNESS AND THE PSYCHOLOGICAL BASIS OF THE
EDUCATIONAL PROCESS**

ABSTRACT: *One of the traditions has become that psychology and the phenomena it studies have been studied only by those who are directly involved in this science, because psychological phenomena should be familiar to everyone and form the basis of human life.*

Keywords: *education, factors of successful learning, observation, recollection, attention, memory, will, interest.*

Daraxning ildizi qanchalik chuqur va tarmoqlarga bo'lsa, u shunchalik mustahkam, uning umri shunchalik davomli, hosili esa mo'l-ko'l bo'ldi. Insoniyat ko'p ming yillik taraqqiyoti davomida jamiyatning rivojlantirishning ta'lim, ilm va hunardan samaraliroq vositani kashf qila olgan emas, shu sababli ham ta'lim, ilm-fan

har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omildir.

Ta'lim o'z ildizlarini ilm-fan va ishlab chiqarish, ijtimoiy turmush, bir so'z bilan aytganda hayot bilan bog'lay olgan, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyaga kirishgan taqdirdagina o'z oldiga qo'ygan natijalarga erisha oladi, fan, ta'lim-tarbiya va iqtisodiyotning o'zaro chuqur, har tomonlama uzluksiz aloqasini ta'minlay olgan va jamiyat hayotining barcha sohalarida tadbiq etgan davlat esa taraqqiyotga erishadi. Bu borada mamlakatimiz ta'lim sohasida salmoqli ishlar amalga oshirayotganligi xech kimga sir emas. Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy malumotli mutahassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarni kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardandir. Bu muammolarni bartaraf etishda va muayyan aniq natijaga erishishimiz uchun eng avvalo ta'limning psixologik asoslariga e'tiborimizni qaratishimiz lozim.

Ta'lim talabaga muayyan ko'lamda va darajada bilim, ko'nikma, malaka berishga, shuningdek shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Ta'lim ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi (talim beradi) va talaba (ta'lim oladi) larning hamkorlidagi faoliyati natijasida amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonida kuzatuvchanlik va tafakkurni tarkib toptirish. Kuzatuvchanlik talabalarda shakllantirish uchun o'qituvchi ular oldiga aniq va muayyan maqsad qo'yishni: yaxlit predmetdan bo'lak va qismlarni ajratishni, obyektlarni o'zaro taqqoslashni, muhim va nomuhim belgilarni farqlashni o'rgatish lozim. Bilimlarni o'zlashtirishning muhim tomonlaridan biri o'quv materialini tushinishdan iborat bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi, predmetlararo aloqasi muayyan sohalarga va tizimlarga taalluqligini anglash bosqichiga ko'tariladi. Talaba o'rganilayotgan materiallarni o'tilgan mavzular bilan murakkab ichki bog'lanishga ega ekanligini, qonuniyat ta'rifini, sabab-oqibat munosabatlarini kelib chiqishini tushinish imkoniyatiga ega bo'lmog'i zarur. Bu narsani oddiy idrok qilish yoki kuzatish orqali anglab bo'lmaydi. Shuning uchun fikrlash, mulohaza yuritish, ijobiy izlanish, ya'ni

tafakkur qudrati bilan aniqlanadi.

Ta'lim jarayonida xotira. Ta'lim materiallarini esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish uchun xotiraning bir necha xil vositalaridan foydalaniladi. Dastlab bilimlar, axborotlar talaba ongiga assosiyativ yo'l bilan boradi. Jumladan, o'rganilayotgan narsa va xodisalarning o'xshashligi, yondoshligi, qarama-qarshiligi, mavjud bo'lganligi sababli ular yengilroq o'zlashtiriladi. Ba'zan qonun va qoidalar ma'nosiga tushinmay, mexanik ravishda yod olinadi. Lekin, bunday materiallar esda puxta saqlanmaydi. Aynan shuning uchun o'quv materiallarini mohiyatini imkon boricha mantiqiy yo'l bilan esda olib qolish kutilgan samarani beradi.

O'zlashtirish jarayonida samaradorlik ko'p jihatdan talabalarga beriladigan ustanovkalarga - ularning ruhan shu narsani qabul qilishga tayyorligi, yaqqol ko'rsatmalar berilishi, inson o'zini o'zi yo'naltirish jarayoniga bog'liq. Odatda materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uzoq yoki qisqa muddat esda saqlashga, aniq esga tushirishga, erkin fikr yuritishga mo'ljallangan ko'rinishga ajratish mumkin.

Ta'limda diqqat va qiziqishlar. Bilish jarayonining barqarorligi, mazmundorligi va tartibliligi bevosita diqqatga bog'liqdir. Diqqat passiv, kuchsiz bo'lgan vaqtda bilish jarayoni sekinlashadi yoki tormozlashadi. Talabalarning diqqati uzoq vaqt davomida muayyan vazifaga qaratilgandagina bilish jarayoni amalga oshadi. Diqqat faolligiga ko'ra ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ixtiyordan tashqarida; obyektga qarab tashqi, ichki; faoliyat shakliga qarab: yakkahol, guruh, jamoaviy turlarga bo'linadi.

Ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin o'qishda diqqatning faqat manashu turiga asoslanib ish ko'rish maqsadga muvofiq emas. Ma'lumki, o'ta qiziqarli maruzalar, mashg'ulotlar talabaning fikr yuritishga, qiyinchiliklarni yengishga salbiy ta'sir qiladi. saboq berish jarayonida ko'proq ixtiyoriy diqqatga tayanish yaxshi natija beradi. Chunki, irodaviy diqqat emotsional qiziqishning birlashuvi diqqatni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida qiziqishning o'rni behad muhim. Chunki, qiziqishlar talabaning o'qishga nisbatan munosabatini, o'quv predmetlarning mazmuniga ko'ra moyillik kuchini aks ettiradi. Moyillik kuchi ularda yuzaga kelgan bilimga nisbatan

ehtiyojlarga javob reaksiyasini bildiradi ,bilishga chanqoqlik hislarini qondirish vositasini izlab topishga yo'l ochadi. Qiziqishga ega bo'lganlar - predmet ,voqea va hodisalarni o'zaro jamlab umumiy xulosa chiqarishga harakat qiladilar.

Ta'limda irodaning roli. O'zlashtirish samaradorligi talabaning irodaviy zo'r berish ,ma'naviy ehtiyoji va anglashilgan o'quv motivga bevosita bog'liq. Shunday ekan, ularni qiyinchiliklarni yengishga, ayrim paytda duch keladigan muvaffaqiyatsizliklar oldida dovdirab qolmasdan, balki ularni o'z -o'zini boshqarishga buyruq berishga o'rgatish ayni muddaodir.Hozirgi davrda o'zini o'zi tarbiyalash ,o'zini -o'zi takomillashtirish, ichki imkoniyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi treninglar , rolli va syujetli o'yinlarga oid mashqlar majmuasi mavjuddir. Ularning har biridan unumli foydalanish yo'l-yo'riqlarni talabaga tanishtish o'qituvchining kasbiy burchidir.

Davrimiz insonni mustaqil fikrli shaxs sifatida har bir soniyada o'ylashga ,fikrlashga mulohaza yuritib ,o'zi uchun xulosalar chiqarishga majbur etmoqda. Ya'ni bu cheksiz olamda biz o'zimizni o'zgalarsiz ,o'z manfaatlarimizni o'zgalar manfaatisiz tasavvur qila olmaganimiz uchun ham psixologiyani bilishga majburmiz. Zero, mustaqil davlatimizning siyosati inson manfaatini himoya qilish , uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan , bu ishlarni amalga oshirish uchun bo'lg'usi mutaxassis ,u pedagog o'qituvchi bo'ladimi yoki quruvchi muhandis yoki agronom bo'ladimi ,shifokor bo'lib, el dardiga darmon bo'ladimi, ijtimoiy borliq qonunlarini bilishi va undan maromida foydalanib , turmush normalariga bo'ysunishi ,jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallab , fuqarolik burchini ado etishi darkor.

REFERENCES

1. Ivanov P.I. Ta'limning psixologik asoslari, - T. 1961.21-85 betlar
2. Kruteskiy V.A. Pedagogika psixologiya asoslari.-T.1976. 182-207- betlar
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda .-T .:"O'zbekiston", 2001
4. G'oziyev E. Pedagogika va psixologiya asoslari,-T. 1997. 3-10- betlar
5. Samarova, S. R. (2018). Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhancing Creativity. Eastern European Scientific Journal, (6).
6. Samarova, S. R. (2019). Methods and technologies for the development of

creative thinking of pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(10), 37-43.

7. Rabidjanovna, S. S., & Bakhtiyarovich, T. S. (2021). Technology for the development of cognitive competence of students in the information and educational environment. Middle European Scientific Bulletin, 11.

8. Rabidjanovna, S. S., & Mirabidovna, M. H. (2021). Methods of resolution of conflict in the pedagogical process. Middle European Scientific Bulletin, 11.

9. Rabidjanovna, S. S., & Aburakhmatovich, E. K. (2021). Development trends in the subject of pedagogy and the education system. Middle European Scientific Bulletin, 11.

10. Самарова, Ш. Р. (2020). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ЎҚИШГА ҚИЗИҚТИРИШ МАШҚЛАРИ. Science and Education, 1(Special Issue 4).

11. Самарова, Ш. Р., & Мирзаева, М. А. (2020). ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ КАК КОМПЕТЕНТНЫХ ЛИЧНОСТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. International scientific review, (LXXIV).

12. Самарова, Ш. Р. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ОСНОВ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ КАК СПОСОБ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ МОЛОДЕЖИ. Science and Education, 1(Special Issue 4).